

“MUSEUM INTERNATIONAL” XALQARO JURNALI RUKNLARIDA
MUZEYLAR TARG‘IBOTIGA OID JARAYONLARNING YORITILISHI VA
BYULETENLAR FAOLIYATINI TADQIQ QILISH

Uroqboyeva Maftuna Almos qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy va rassomlik va dizayn instituti San‘atshunoslik va Amaliy san‘at fakulteti 1-kurs magistranti +9989 93 356 67 22 @uroqboyevamaftuna6gmail.com

Anotatsiya: *Mazkur maqolada muzeyshunoslik keng targ‘ib kelayotgan “Museum International” xalqaro jurnalining targ‘iboti haqida so‘z boradi. Shuningdek, bu jurnal qoshidagi byuletenlarning muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyati umumiy tushunchalar bilan yoritib beriladi. Ma’lumki, jurnallarning faoliyati nafaqat muzeylar sohasi uchun balki mavjud bo‘lgan barcha sohalar uchun zarurdir. Aynan shu sababli ham ularning bugungi kundagi o‘rni ilmiy tadqiq etish chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *muzey, nashr, targ‘ibot, Museum International jurnali, byuleten, YUNESKO, xususiy kolleksiya, madaniy meros, antikvar.*

Muzeyshunoslik keng miqyosda moddiy, nomoddiy yodgorliklarni va tarixiy-madaniy meros obyektlari tadqiqotini qamrab oladi. Muzey ishi o‘tmishda yashagan kishilar ijodining buyuk namunalari, moddiy va nomoddiy madaniyatning tipik ashyolarini, shuningdek tarixiy-badiiy muhitni tadqiq etadi. Demak, bu merosga munosabat har qanday jamiyat yetukligining, bu jamiyatni tashkil etuvchi millatning madaniy rivojlanganlik darajasi mezonining asosiy ko‘rsatkichidir. Globallashuv jarayonlari hayotimizning barcha sohalariga kirib borayotgan sharoitda tarixiy-madaniy merosni asrash – milliy o‘zlikni, milliy madaniyatni saqlab qolish demakdir. Mazkur soha rivojida tayanch bo‘lgan xalqaro va milliy tashkilotlar faoliyatini tadqiq etish, o‘rganish muhim omillardan sanaladi. Xorijiy mutaxassislar fikricha muzey – favqulotda ancha murakkab tushuncha bo‘lib, unga tugal, munozarasiz va hammani qanoatlantiradigan ta’rifni berish qiyin. Ko‘pgina davlatlar qonunchiligi yoki o‘zlarining milliy tashkilotlari doirasida muzeylar faoliyatini rivojlantirgan. Tarixiy-madaniy merosni muzeylarda saqlash tizimining shakllanishi salkam ikki asrlik tarixga egadir. Shu davr mobaynida yodgorlik, meros, madaniyat, madaniy boylik, muzey, ta’mir, rekonstruksiyalash, muzey ekspozitsiyasi, muzeylashtirish va shu kabi o‘nlab asosiy tushunchalar, terminlar shakllandi, ularga muayyan mazmun yuklatildi. Ulardan ba’zilarining ifoda imkoniyatlari kengayib bordi. Shu yo‘nalishda dunyoning turli mamlakatlarida masalani huquqiy izga ko‘chiruvchi birinchi qonunchilik hujjatlari, meyoriy aktlar qabul qilindi. YUNESKOning O‘zbekistondagi tarixiy-madaniy meros obektlarini tadqiq etish borasida amalga oshirgan ishlarini tarixiy nuqtai-nazardan tahlil etish hamda muzeyshunoslik bo‘yicha O‘zbekiston muzeylar kengashi tomonidan olib borilayotgan tadqiqot va loyihalarning natijalarini amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Muzeyshunoslik tarixini doimiy rivojlanib borgan jarayon sifatida, muzeyshunoslikning boshqa turdosh fanlardan ajralib chiqishi va fan sifatida tashkil topishi, metodologiya asoslarining yaratilishi bilan uzviy tasavvur etish mumkin. Muzeyshunoslikni

davrlashtirilishi to'g'risida, turlicha rivojlanish bosqichlari xususida qarashlar mavjud. 1980-yillarning boshlarida Chex muzeyshunosi Zbinek Stranskiy muzeologiyaning rivojlanish bosqichlarini davrlashtirgan [1]. Keyinroq u o'z nazariyasini ko'rib chiqib, o'rniga yanada ishonchliroq, aniqroq davriylikni taqdim etdi va aynan shu tadqiqot butun jahon muzeyshunosligida shuhrat qozondi. Uning bu nazariyasi Peter van Menshning dissertatsiyasida foydalanildi. Ivo Maroyevich esa bu ishlanmadan o'z shaxsiy davrlashtirish tizimini ishlab chiqdi. Stranskiy muzeologiya rivojida uch bosqichni e'tirof etdi: ilmiylikkacha bo'lgan davr, emperik- tasvirlash (hissiy tasvirlash) va nazariya-tahlil bosqichlari. Ilmiylikkacha bo'lgan muzeyshunoslik bosqichi Renessans davridan boshlanadi. Bu davrda ilk mukammal kataloglar va xususiy kolleksiyalarning yo'l ko'rsatkichlari paydo bo'lgandi. Myunxenda 1565-yilda Samuel fon Kvixenbergning "Teatrning umumiy muqaddimasi yoki nomlanishi" ("Заголовки или заглавия обширного театра") nomli asarining chop etilishi bunga misol bo'ladi. Muzeyshunoslikning bu bosqichida u turdosh fanlar orasida qo'shimcha fan sifatida paydo bo'ldi. Muzeologiya bu davrda qo'shimcha fandan amaliy fanga aylandi [2].

Muzeyshunoslik sohasida hozirgi kungacha bo'lgan o'zgarishlar ichida davriy nashrlarning yanada taraqqiy etayotganligi mazkur sohaning asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Davriy nashrlarning shu kunga qadar rivojlanish jarayonida bir qancha hodisalarga duch kelgan. Dunyoda bo'lib o'tgan har qanday siyosiy va ijtimoiy voqealiklar unga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Shuningdek, muzeyshunoslikka oid dastlabki jurnal 1877-yilda Iogann Georg Teodor Graesse (1814–1885) tomonidan "Muzeyshunoslik va antikvarlar jurnali" (Zeitschrift für Museologie und Antiquitätenskunde) deb nomlangan va u davriy nashrda birinchi marta nashr etilgan. 1883-yilda uning hissasi bilan "Muzeyshunoslik ixtisoslashgan fan sifatida" (Die Museologie als Fachwissenschaft) nomli asari anonim tarzda nashr etilgan. Kirish qismi o'zgacha xarakterga ega: "Agar kimdir o'ttiz, hatto yigirma yil oldin muzeyshunoslik haqida gapirgan yoki yozgan bo'lsa, u ko'p odamlarning kamsituvchi va nafratli kulishlariga duch kelgan bo'lar edi. Bugungi kunda albatta boshqacha" (Stranskə 2005, 91–92). Shu davrda turli xil sohalardagi olimlar muzeyshunoslik haqida dastlabki fikrlarini o'z talqini va o'zlarining ijod yo'lidan kelib chiqqan holda ta'riflashgan. Ammo ko'pchilik insonlar muzeyshunoslik haqida ijobiy fikrda bo'lishmagan [3].

Buyuk Britaniya va AQSHda ilk muzey tashkilotlarining paydo bo'lishiga olib kelgan tendensiyalar Yevropaning boshqa mamlakatlariga ham tarqaladi. Muzey ishining rivojlanishi professional jamoani yaratishni talab qiladi. Professional davriy nashrlar tobora muhim rol o'ynay boshlagan. Ko'pincha, birinchi professional nashrlar birinchi professional tashkilotlardan oldin paydo bo'lgan. Bunga misol tariqasida Fransiya va Germaniyani keltirib o'tishimiz mumkin [4]. Uning tarixiga yuzlanadigan bo'lsak, 1890-1893-yillarda Fransiyada "Muzeylar byulleteni" nashr etildi: "Oylik jurnal" hisoblanadi. 1906-yilda "Fransiya muzeylari va yodgorliklari: eski va yangi san'at oylik jurnali" ("Музе́ес et monuments de France: revue mensuelle d'art ancien et moderne") jurnali nashr etila boshlagan, uning asoschisi mashhur san'atshunos, "Luvr maktabi" bitiruvchisi va haykaltaroshlik bo'limi muhofizi Pol Vitri (1872-1941) bo'lgan. Jurnalning paydo bo'lishiga 1905-yilda cherkov va davlatni ajratish

to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi sabab bo'ldi. Vitrining so'zlariga ko'ra, chet eldagi tarixiy obidalar keng ko'lamli savdoga yo'l ochishi mumkin. Tasvirli jurnalda turli xil muzey obyektlariga bag'ishlangan san'at tarixi bo'yicha tadqiqotlar, shuningdek, umumiy muzey yangiliklari (joriy ko'rgazmalar va ekspozitsiyalar, yangi xaridlar va boshqalar haqida ma'lumot) nashr etilgan. 1908-yildan boshlab u XIX asr oxiridan o'tgan o'tmishdoshi sharafiga "Fransuz muzeylari byulleteni" ("Bulletin des musées de France") deb nomlangan [5]. Shunga o'xshash jarayonlar Germaniyada ham bo'lgan. 1905-yilda Drezdenda "Muzeyshunoslik - davlat va xususiy kolleksiyalarni boshqarish va texnologiyasi bo'yicha jurnal" deb nomlangan yana bir professional jurnal chiqa boshladi. Uni yaratish tashabbuskori taniqli san'atshunos va muzey arbobi Karl Koetshau (1868-1949) edi. O'sha paytda Drezdendagi Tarix muzei direktori edi. Koetshau Bonnda san'at tarixi va arxeologiyani o'rgangan, uning dissertatsiyasi 1893-yil "Bartel Bexam va Meskirxlik usta" deb nomlangan va so'nggi o'rta asrlar davri nemis rangtasviriga bag'ishlangan. U muzey sohasini demokratlashtirish, muzeylarni o'zgartirish tarafdori bo'lgan. Ta'lim markazlariga, to'plamlarning aholining eng keng qatlamlariga kengroq kirishi va ikki qismli tamoyilni joriy etish muzey ko'rgazmalarini tashkil etish (keng omma va mutaxassislar uchun) tarafdori bo'lgan [6]. Yangi jurnal bilan Koetschau nafaqat muzey ishini takomillashtirishga, balki mamlakatning turli muzeylari va turli mamlakatlar muzeylari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatishga intildi [7]. Jurnalni nashr etish tashabbuskori K. Koetschauning say-harakatlari tufayli uning xalqaro xususiyati Birinchi jahon urushi yillarida ham saqlanib qoldi, bir-biri bilan qarama-qarshi bo'lgan mamlakatlar mualliflari uning sahifalarida nashr etilishi davom etdi [8]. Xalqaro muzeylar byurosining o'z davriy nashri ham bor edi - bu jurnal "Museyon: Xalqaro muzeografiyaning yangi sharhi" ("Museum: Revue Internationale de Museographie") deb nomlangan va 1927-yildan 1946-yilgacha nashr etilgan [9].

"Museum International" yoxud "Xalqaro muzey" ilmiy jurnali 1948-yilda tashkil etilgan. Jurnalning asosiy maqsadi muzeyshunoslik, madaniy merosni saqlash va muzeylar amaliyotiga oid ilmiy tadqiqotlarni chop etishdir. "Museum International" jurnali Xalqaro Muzeylar Kengashi (ICOM) tomonidan nashr etiladi. Jurnalning nashriyotchisi Wiley-Blackwell kompaniyasidir.

Jurnalning tahririyatida muzeyshunoslik sohasidagi yetakchi mutaxassislar ishtirok etadi. Nashrlar ingliz va fransuz tillarida chop etiladi [10]. Muzeylar targ'iboti sohasida YUNESKO (Birlashgan Millatlar Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti) va ICOM (Xalqaro Muzeylar Kengashi)ning o'rni beqiyosdir.

Ular muzeylarning jamiyatdagi roli, axloqiy me'yorlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda asosiy yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. YUNESKO 2015-yilda muzeylarning jamiyatdagi o'rni va roli haqida tavsiya etilgan hujjatni qabul qildi. Bu hujjat muzeylarni nafaqat madaniy merosni saqlovchi, balki ta'lim, ilm-fan va ijtimoiy rivojlanishning faol ishtirokchilari sifatida ko'rsatadi.

Tavsiya etilgan hujjat muzeylarning jamiyatdagi roli va mas'uliyatlarini kengaytirish, ularni ijtimoiy va madaniy rivojlanishda faol ishtirok etishga chaqiradi. ICOMning Muzeylar uchun Etika Kodeksi (ICOM Code of Ethics for Museums) muzeylar faoliyatining axloqiy asoslarini belgilaydi.

Bu kodeks muzeylarning kolleksiyalarni boshqarish, xavfsizlik, qaytarish va etika masalalarida minimal professional standartlarni belgilaydi.

ICOMning Marketing va Jamoatchilik aloqalari bo'yicha xalqaro qo'mitasi (ICOM MPR) bu kodeksni targ'ib qilish va muzey mutaxassislariga amaliy qo'llanmalar taqdim etishda faol ishtirok etadi.

YUNESKO va ICOMning muzeylar targ'ibotidagi faoliyati muzeylarning jamiyatdagi o'rni va roli haqida global tushunchalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ularning tavsiyalari va kodekslari muzeylarning axloqiy va professional faoliyatini yo'naltiradi, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лоренте П. Х. Развитие музеологии как университетской дисциплины: от технической подготовки к критической музеологии // Вопросы музеологии. 2011. № 2 (4). С. 45–64.

2. Mensch P. van. Towards a methodology of museology. Ph. D. thesis, University of Zagreb, 1992. Chapter IX. Professionalism and museology. Электрон вариант қаранг.: <http://www.muuseum.ee/uploads/files/mensch09.htm>

3. Dolbik, Jan. Museology and Its Theory/Published by Technical Museum in Brno, P-13. 2022.

4. Ананьев В.Г. История зарубежной музеологии: Идеи, люди, институты. М.: Памятники исторической мысли, 2018. – 392 с.

5. О них см.: Куклинова И.А. Коллекционирование во Франции второй половины XIX века: Опыт осмысления // Вестник Санкт-Петербургского государственного университета культуры и искусств. 2016. № 1 (26). С. 108–113.

6. См.: Нагуевский Д.И. Из жизни музеев. Казань, 1906

7. Ананьев В.Г. История зарубежной музеологии: Идеи, люди, институты. М.: Памятники исторической мысли, 2018. – 392 с.

8. В 1915 г., например, в журнале была опубликована статья российского этнографа и музейного деятеля Б.Ф. Адлера. См.: Ibid. P. 185–186. Он же впо следствии даст и один из первых обзоров музейного дела в Советской России.

9. См.: Ducci A. «Mouseion», una rivista al servizio del patrimonio artistico europeo (1927–1946) // Annali di critica d'arte. 2005. Vol. I. P. 287–313.

10. https://en.wikipedia.org/wiki/Museum_International